| BUDJET TASHKIOTLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI, MAQSADI VA INSTITUTSIONAL O'RNI | 749 |
| Saitmuratov Saitmurat Masharip o'g'li | |
| KELAJAK STRATEGIYASI INNOVATSION HR-SIYOSATLAR VA YOSH KADRLAR BILAN ISHLASHNING KONSEPTUAL MODELII | 755 |
| Abiyev Jahongir Ne'matovich | |
| BUDJET TASHKIOTLARIDA ICHKI AUDIT O'TKAZISH JARAYONINING USLUBIY TAHLILI | 761 |
| Saitmuratov Saitmurat Masharip o'g'li | |
| AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI | 767 |
| Ashurov Furkatjon Shuxratovich | |
| ОПЫТ ВЕДУЩИХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН В НАЛОГООБЛОЖЕНИИ ХОЗЯЙСТВУЮЩИХ СУБЪЕКТОВ..... | 771 |
| Курбанов Рустам Раджапович | |
| FOND BOZORI ORQALI XUSUSIYLASHTIRISH: POLSHA TAJRIBASI, O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI | 775 |
| Chinqulov Qahramon Ravshanovich | |
| SAMARQAND QISHLOQLARIDA "OILAVIY MEHMON UYLARI" (GUEST HOUSES) VA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: ISHCHI KUCHI VA KAPITAL NAZARIY TAHLILI..... | 781 |
| Ozoda Pardayeva | |
| YASHIL INNOVATSIYALARNING O'ZBEKISTONDAGI IQTISODIY ROLI | 787 |
| Mamatsoliyev Muhammadjon | |



YASHIL INNOVATSIYALARNING O'ZBEKISTONDAGI IQTISODIY ROLI

Mamatsoliyev Muhammadjon
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot fakulteti
1-bosqich I-85K guruhi talabasi
Tel.: +998 93 151 16 12
Ilmiy rahbar: Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li
TDIU Bank ishi kafedrası PhD, dotsent v.b.

Annotatsiya: Hozirgi global rivojlanish davrida mamlakatlarning dolzarb muammolaridan biri – atrof-muhit ifloslanishi hamda yashil iqtisodiyotning mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini oshirish hisoblanadi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun yashil investitsiyalardan foydalanmoqda. Xususan, O'zbekistonda olib borilayotgan yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha strategik chora-tadbirlar ham o'z samarasini bermoqda. Maqolada O'zbekistonning ushbu soha bo'yicha olib borayotgan tizimli sa'y-harakatlari va ularning natijalari ta'kidlab o'tiladi hamda Yevropaning bir qancha mamlakatlari andozalari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: yashil investitsiya, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, yashil moliyalashtirish, yashil kreditlar, yashil iqtisodiyot, energiya samaradorligi, yashil texnologiyalar.

Abstract: In the current era of global development, one of the most pressing issues faced by countries is environmental pollution and increasing the impact of the green economy on national economies. Many developed countries are using green investments to ensure sustainable economic growth. In particular, the strategic measures being implemented in our country to develop the green economy are also yielding positive results. This article highlights Uzbekistan's systematic efforts in this field and their outcomes, as well as analyzes the models of several European countries.

Keywords: green investments, sustainable development, renewable energy, green financing, green loans, green economy, energy efficiency, green technologies.

Аннотация: В современных условиях глобального развития одной из актуальных проблем стран является загрязнение окружающей среды и усиление влияния зелёной экономики на национальную экономику. Многие развитые страны используют зелёные инвестиции для обеспечения экономического роста. В частности, стратегические меры, реализуемые в нашей стране по развитию зелёной экономики, также дают свои положительные результаты. В статье рассматриваются системные усилия Узбекистана в данной сфере и их результаты, а также анализируются модели ряда европейских стран.

Ключевые слова: зелёные инвестиции, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, зелёное финансирование, зелёные кредиты, зелёная экономика, энергоэффективность, зелёные технологии.

KIRISH

So'nggi yillarda yashil iqtisodiyot hamda uning barqaror rivojlanishga ta'sirini tadqiq etish ilmiy doiralarda eng dolzarb yo'nalishlardan biriga aylangan. Yashil iqtisodiyot mamlakat iqtisodiyoti samaradorligini oshirish, ekologik muammolar va xavflarni kamaytirishga xizmat qiluvchi muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Mazkur yondashuv atrof-muhit ifloslanishini qisqartirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, yashil iqtisodiyot yangi ish o'rinlarini yaratish, investitsion faollikni kuchaytirish hamda kambag'allikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. U moddiy va inson resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlab, jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni qisqartirishga ham xizmat qiladi. Eng muhimi, mavjud resurslarni kelajak avlod manfaatlarini inobatga olgan holda saqlash va ulardan samarali foydalanishga zamin yaratadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNEP (United Nations Environment Programme) tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, "yashil iqtisodiyot" — inson farovonligini oshirish bilan bir qatorda ekologik xavf-xatarlar hamda tabiiy resurslar tanqisligini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Sodda mazmunda aytganda, yashil iqtisodiyot kam uglerodli rivojlanishga asoslangan bo'lib,



resurslardan samarali foydalanish va barcha ijtimoiy qatlamlarning ulardan teng foydalanishini ta'minlashga yo'naltirilgan iqtisodiy tizimdir. Mazkur model energiya samaradorligini oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda atrof-muhit ifloslanishi va uglerod chiqindilarini qisqartirishni asosiy maqsad sifatida belgilaydi.

Hozirgi ekologik tendensiyalar iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqur tahlil qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Ayniqsa, ekologik jarayonlarning iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini baholash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Yevropa Ittifoqiga a'zo barcha davlatlar 2030-yilgacha barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo'yicha xalqaro kelishuvni imzolagan. Mazkur bitimga muvofiq, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik va ekologik muvozanatni uyg'unlashtirish bo'yicha majburiyatlarni ixtiyoriy ravishda amalga oshirib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" deb nomlanib, mazkur qaror bilan bir qator muhim strategik hujjatlar hamda tartibga solish tizimlari rasman kuchga kiritildi: [1]

- strategik maqsadlarga erishishga mo'ljallangan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi;
- sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash bo'yicha konsepsiya;
- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha harakatlar rejas;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig'imi ko'rsatkichini 2026-yilga kelib 2022-yilga nisbatan 20 foizga kamaytirishga qaratilgan 2022–2026-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini tejashning maqsadli parametrlari;
- O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralarini muvofiqlashtirish bo'yicha idoralararo kengash tarkibi yangilandi;
- "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sish bo'yicha donorlarning muvofiqlashtirish guruhi tasdiqlandi.

"Yashil" va "investitsiya" tushunchalarining ta'riflari keng va umumiydan tortib, juda texnik va aniq shakllargacha farq qiladi. Ushbu ta'riflarning ko'pchiligi umumiy asosga ega bo'lsa-da, sezilarli farqlar va noaniqliklar mavjud bo'lib qolmoqda. Yashil investitsiyalar — bu atrof-muhitga salbiy ta'siri minimal bo'lgan ekologik toza texnologiyalar va loyihalarga yo'naltiriladigan investitsiyalar hisoblanadi. Bunday investitsiya imkoniyatlari rivojlangan hamda rivojlanayotgan davlatlar uchun birdek ahamiyat kasb etadi. Yashil investitsiyalar atmosferaga chiqariladigan zararli chiqindilar va ifloslanish darajasini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda tabiiy resurslarga bo'lgan qaramlikni qisqartirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda dunyo bo'ylab yashil investitsiyalar quyidagi yo'nalishlarga jalb etilmoqda:

- **Qayta tiklanadigan energiya manbalari.** Mazkur yo'nalish an'anaviy energiya resurslari, jumladan, neft, gaz va ko'mir o'rniga ekologik jihatdan xavfsiz hamda tugamaydigan energiya manbalarini rivojlantirishga investitsiyalar yo'naltirishni nazarda tutadi. Ushbu investitsiyalar energiya xavfsizligini ta'minlash bilan birga, atmosferaga zararli chiqindilar hajmini kamaytirishga ham xizmat qiladi.
- **Energiya samaradorligi.** Ushbu yo'nalish energiya resurslaridan oqilona va tejamkor foydalanish hamda zamonaviy texnologik yechimlarni joriy etishga qaratilgan. Energiya samaradorligini oshirish ekologik barqarorlikni ta'minlash bilan bir qatorda, korxonalar va aholi uchun energiya xarajatlarini qisqartirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ham oshiradi.
- **Ekologik transport tizimlari.** An'anaviy yoqilg'ida harakatlanuvchi transport vositalari atmosfera ifloslanishining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli yashil investitsiyalar ekologik toza transport vositalarini ishlab chiqarish, elektr transportini rivojlantirish hamda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishga yo'naltiriladi.
- **Barqaror qishloq xo'jaligi.** Qishloq xo'jaligi faoliyati ekologik tizimlarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yashil investitsiyalar ekologik xavfsiz dehqonchilik va chorvachilik usullarini qo'llab-quvvatlash orqali tabiiy resurslarni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu yo'nalish aholining ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi.
- **Atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilarni qayta ishlash.** Ushbu yo'nalish chiqindilar hajmini kamaytirish, ularni qayta ishlash hamda resurslardan takroriy foydalanishni rag'batlantirish orqali ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan. Natijada atrof-muhit ifloslanishining oldi olinib, tabiiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyati kengayadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil innovatsiyalar hamda ekologik xavfsiz texnologiyalar mavzusi so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng miqyosda o'rganib kelinmoqda. Jumladan, O.B. Otajanov o'zining 2018-yildagi ilmiy ishlarida yashil innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishning iqtisodiy natijadorligini baholashga oid uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqqan. Z.T. Xudayberganov esa 2020-yilda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning mavjud imkoniyatlari va istiqbolli yo'nalishlarini tadqiq etgan. Shuningdek, E.A. Umarov 2021-yilda olib borgan izlanishlarida yashil texnologiyalarni qishloq xo'jaligi sohasida qo'llash orqali ekologik va iqtisodiy barqarorlikka erishish masalalarini ko'rib chiqqan.

Xalqaro tadqiqotlarda ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) tomonidan 2011-yilda yashil innovatsiyalar atrof-muhitga yetkaziladigan zararli ta'sirni kamaytirishga xizmat qiluvchi innovatsion faoliyat sifatida izohlangan. Bundan tashqari, Klewitz va Hansen 2014-yildagi ilmiy ishlarida yashil innovatsiyalarning asosiy yo'nalishlari hamda ularni kichik va o'rta biznes faoliyatida qo'llash mexanizmlarini tahlil qilganlar.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham yashil investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati keng o'rganilgan. Jumladan, Vladimir Ristanović, Dinko Primorac hamda Barbara Dorić tomonidan olib borilgan "The Importance of Green Investments in Developed Economies—MCDM Models for Achieving Adequate Green Investments" nomli tadqiqotda rivojlangan mamlakatlarda yashil investitsiyalarning iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilingan. Mualliflar yashil investitsiyalarni samarali yo'naltirishda MCDM (Multi-Criteria Decision-Making) modellarining ahamiyatini asoslab bergan hamda ushbu investitsiyalar ekologik xavflarni kamaytirish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim vosita ekanligini ta'kidlaganlar. [3]

Ilmiy manbalar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, yashil innovatsiyalar ekologik xavfsizlik, iqtisodiy manfaatdorlik va ijtimoiy farovonlikni o'zaro bog'lovchi ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. Shu sababli ularni samarali amalga oshirish davlat boshqaruvi, biznes sektori va jamiyatning ekologik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli yondashuvni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan zamonaviy usullardan foydalanildi. Xususan, yashil investitsiyalar va yashil innovatsiyalarning barqaror rivojlanishga ta'sirini baholashda induksiya va deduksiya usullari, ilmiy abstraksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, sintez, ekspert baholash hamda iqtisodiy-statistik tahlil usullaridan samarali foydalanildi. Shu bilan birga, abstrakt-mantiqiy fikrlash yondashuvi tadqiqot obyektini tizimli ravishda tahlil qilish va mavjud muammolarni ilmiy asosda yoritishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqot metodologiyasi doirasida yashil innovatsiyalar va yashil iqtisodiyotga oid ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari, shuningdek, O'zbekiston hamda xorijiy davlatlarning me'yoriy-huquqiy hujjatlari o'rganildi va tahlil qilindi. Bundan tashqari, mavjud statistik ma'lumotlar asosida amaliy tahlillar olib borilib, yashil iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari baholandi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda yashil innovatsiyalar tushunchasining mazmun-mohiyati ochib berilib, ularning asosiy turlari tasniflandi. Ikkinchi bosqichda yashil innovatsiyalarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar hamda ularning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar aniqlab olindi. Uchinchi bosqichda esa O'zbekistonda yashil innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatlari, mavjud salohiyat va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil innovatsiyalar — bu ekologik xavflarni kamaytirish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlar, texnologik jarayonlar, boshqaruv tizimlari va marketing yechimlari majmuasidir. Tahlillar natijasida yashil innovatsiyalar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ikki asosiy guruhga, ya'ni rag'batlantiruvchi va rivojlanishni cheklovchi omillarga ajratildi. Rag'batlantiruvchi omillar tarkibiga davlat tomonidan olib borilayotgan ekologik siyosat, me'yoriy-huquqiy baza, soliq imtiyozlari, subsidiyalar va boshqa qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kiritildi. Shuningdek, ekologik xavfsiz mahsulotlarga bo'lgan talabning ortib borishi, zamonaviy texnologiyalar va qayta ishlash usullarining rivojlanishi, energiya hamda xomashyo resurslari narxining oshishi tufayli resurslardan samarali foydalanish zaruratining kuchayishi ham muhim ijobiy omillar sifatida baholandi. Bundan tashqari, global ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikning kengayib borayotgani yashil innovatsiyalar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi.



Biroq tadqiqot davomida yashil innovatsiyalarni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar ham mavjudligi qayd etildi. Jumladan, yashil texnologiyalarni joriy etish bilan bog'liq yuqori moliyaviy xarajatlar, investitsiya resurslarining cheklanganligi, malakali mutaxassislar va amaliy tajribaning yetishmasligi asosiy iqtisodiy to'siqlar sifatida baholandi. Shu bilan birga, me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, litsenziyalash va sertifikatlash mexanizmlarini soddalashtirish hamda infratuzilmani rivojlantirish zarurati yashil innovatsiyalarni samarali joriy etishga ta'sir qiluvchi muhim omillar sifatida baholandi.

1-jadval. Yashil innovatsiyalarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar¹

| Omil turi | Rag'batlantiruvchi omillar | To'sqinlik qiluvchi omillar |
|------------------------|--|--|
| Iqtisodiy omillar | Yashil investitsiyalar va davlat subsidiyalari | Moliyaviy xarajatlarning yuqoriligi va resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi |
| Texnologik omillar | Zamonaviy ekologik texnologiyalar rivoji | Innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati |
| Institutsional omillar | Davlat siyosati va ekologik dastaklarning mavjudligi | Me'yoriy-huquqiy va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurati |

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot modeliga o'tish va ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalari ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Mazkur jarayonda yashil investitsiyalar iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish hamda innovatsion ekologik texnologiyalarni joriy etishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, iqlim o'zgarishi, energiya resurslari tanqisligi va ekologik muammolarning kuchayishi yashil investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida yirik investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya hajmi ortib, elektr energiyasi ishlab chiqarishda yashil energiya ulushi sezilarli darajada oshmoqda.

Quyidagi statistik ma'lumotlar O'zbekistonda yashil investitsiyalar hajmining o'sishi, qayta tiklanuvchi energiya sektorining rivojlanishi hamda yashil innovatsiyalarning iqtisodiy va ekologik samaradorligini aks ettiradi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali mamlakatda yashil iqtisodiyot modeliga o'tish jarayoni jadallashib borayotganini kuzatish mumkin.




1-rasm. O'zbekistonda yashil energetikaga jalb qilingan investitsiyalar (mlrd AQSh dollari)²

1 Muallif ishlanmasi

2 O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi statistik ma'lumotlari asosida tuzildi



Jadval ma'lumotlari O'zbekistonda yashil energetika va qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2024–2025-yillarda quyosh va shamol energetikasi loyihalarining kengayishi natijasida yashil investitsiyalar sezilarli darajada oshgan. Bu esa mamlakatda yashil innovatsiyalarni rivojlantirish va ekologik barqaror iqtisodiyotni shakllantirish uchun muhim moliyaviy asos yaratmoqda.



2-rasm. O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya hajmi o'sishi (MW)³

Jadval ma'lumotlari O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya hajmining so'nggi yillarda barqaror va yuqori sur'atlarda oshib borayotganini ko'rsatadi. Xususan, 2020-yilda umumiy qayta tiklanuvchi energiya hajmi 1987 MW ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 10027 MW ga yetgan. Bu esa qisqa vaqt ichida qayta tiklanuvchi energiya manbalari quvvati qariyb besh barobarga oshganini anglatadi.

Mazkur o'sishning asosiy sabablari sifatida mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati, qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga keng ko'lamli xorijiy investitsiyalarni jalb qilish hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etishni ko'rsatish mumkin. Ayniqsa, quyosh va shamol elektr stansiyalarining qurilishi qayta tiklanuvchi energiya hajmining keskin oshishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya hajmining ortishi mamlakat energetika tizimini diversifikatsiya qilish, elektr energiyasi ta'minoti barqarorligini oshirish va tabiiy gazdan foydalanish ulushini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada elektr energiyasi ishlab chiqarishda ekologik toza manbalarning ulushi ortib, atmosferaga chiqariladigan zararli emissiyalar hajmi qisqarib bormoqda.

Bundan tashqari, qayta tiklanuvchi energiya sektorining rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsion texnologiyalar transferini jadallashtirish hamda hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli qayta tiklanuvchi energiya hajmi ko'rsatkichining o'sishi O'zbekistonda yashil innovatsiyalar va yashil investitsiyalar samaradorligining muhim indikatorlaridan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda yashil innovatsiyalarni rivojlantirish uchun yetarli iqtisodiy va tabiiy salohiyat mavjud. Biroq ushbu yo'nalishda investitsion muhitni yanada yaxshilash, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarur hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- qayta tiklanuvchi energiya loyihalariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yanada rag'batlantirish;
- quyosh va shamol energetikasi bo'yicha davlat-xususiy sheriklik loyihalarini kengaytirish;
- yashil innovatsiyalarni moliyalashtirish mexanizmlarini rivojlantirish;
- ekologik toza texnologiyalar ishlab chiqaruvchi korxonalarni soliq imtiyozlari orqali qo'llab-quvvatlash;

3 O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi statistik ma'lumotlari asosida tuzildi



- ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarida yashil iqtisodiyot bo'yicha innovatsion loyihalarni ko'paytirish;
- energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan dasturlarni keng joriy etish;
- hududlarda qayta tiklanuvchi energiya infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan investitsion dasturlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, yashil investitsiyalar va yashil innovatsiyalarni rivojlantirish O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ekologik muammolarni kamaytirish hamda zamonaviy "yashil iqtisodiyot" modelini shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori. "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida". <https://lex.uz/ru/docs/-6303230>

Heredia-R M., Torres B., Cabrera-Torres F., Torres E., Díaz-Ambrona C.G.H., Pappalardo S.E. Land use and land cover changes in the diversity and life zone for uncontacted indigenous people: Deforestation hotspots in the Yasuní Biosphere Reserve, Ecuadorian Amazon // *Forests*. – 2021. – Vol. 12. – No. 11. – Article 1539.

Ristanović V., Primorac D., Dorić B. The Importance of Green Investments in Developed Economies—MCDM Models for Achieving Adequate Green Investments // *Sustainability*. – 2024. – Vol. 16. – No. 15. – Article 6341.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot. – Toshkent, 2025.

Palvaniyazov A.A. Yashil investitsiyalarning mintaqa barqaror rivojlanishiga ta'sirini baholash // *Innovations in Science and Technologies*. – 2025. – 6-son. – B. 572–579.

Maxkamova S. Yashil innovatsiyalar, ularning turlari va omillari // *Green Economy and Development*. – 2025. – Vol. 3. – No. 4.

International Renewable Energy Agency (IRENA). *Renewable Capacity Statistics 2024*. – Abu Dhabi: International Renewable Energy Agency, 2024.

Ministry of Energy of the Republic of Uzbekistan. *Renewable Energy Development Reports, 2023–2024*. – Tashkent, 2024.

Bouys L. *Green investments: The complete 2026 guide to performance and real impact* // *Homaio*. – 2025. – August 22.

Mi J. *Green Investment and Sustainable Business Development: Risks and Opportunities for China* // *Polish Journal of Environmental Studies*. – 2023. – Vol. 32. – No. 6. – P. 5273–5282.

UzDaily. *Renewable Energy Projects in Uzbekistan* // *UzDaily*. – 2025.

1. United Nations Environment Programme (UNEP). *Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication*. – Nairobi: UNEP, 2011.

2. OECD. *Fostering Innovation for Green Growth*. – Paris: OECD Publishing, 2011. – DOI: 10.1787/9789264119925-en.

3. Klewitz J., Hansen E.G. *Sustainability-oriented innovation of SMEs: A systematic review* // *Journal of Cleaner Production*. – 2014. – Vol. 65. – P. 57–75. – DOI: 10.1016/j.jclepro.2013.07.017.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>